

## AYOLLARDA BACHADON EROZIYASI VA UNING HAVF OMILLARI

**Rustambekova Muslima Rustambek qizi**

*Tibbiyot fakulteti davolash ishi 2 – bosqich talabasi*

**Ilmiy rahbar: Sanobar Amanbayeva**

*Kokand University Andijon filiali*

**Anotatsiya:** Ayollarda bachadon eroziyasi. Bachadon eroziyasi (servikal eroziya) – bachadon bo’ynining shilliq qavatida yuzaga keladigan patologik o’zgarish bo’lib, u ayollarda jinsiy salomatlik bilan bog’liq muammolarga sabab bo’lishi mumkin. Ushbu kasallik asosan yallig’lanish jarayonlari, gormonal o’zgarishlar yoki infeksiyalar natijasida rivojlanadi. Eroziyaning dastlabki bosqichlarida u alomatlarsiz kechishi mumkin, biroq ba’zi hollarda qonli ajralmalar, jinsiy aloqada noqulaylik va pastki qorinda og’riq kuzatiladi. Kasallikning oldini olish uchun muntazam tibbiy ko’riklardan o’tish, gigiyena qoidalariiga rioya qilish va reproduktiv tizim sog’lig‘iga e’tibor berish muhim ahamiyatga ega. Davolash usullari orasida farmakologik terapiya, kriodestruksiya, lazer yoki radioto’lqinli koagulyatsiya kabi zamonaviy muolajalar qo’llaniladi. Ushbu maqolada bachadon eroziyasining kelib chiqish sabablari, diagnostikasi, davolash usullari va profilaktik choralar haqida bat afsil ma’lumot beriladi. Jinsiy a’zolar xavfli o’smalarining keng tarqalganligi va ayollar onkologik kasallikkleri tizimida yetakchi o’rin egallaganligi bachadon tanasi, bo’ynining fon va rak oldi kasallikkleri muoammolarining dolzarbligidan darak beradi. Reproduktiv yoshdagи ayollar onkologik kasallikkleri orasida bachadon bo’yni o’sma jarayonlari ulushi 10% dan 15,7% gacha tashkil qiladi Ma’lumki, ayollar onkologik kasallikkleri tizimida bachadon bo’yin raki birinchi o’rinlardan birini egallab kelmoqda, u noqulay fonda rivojlanib rak oldi kasalliklarining so’nggi bosqichi bo’lib hisoblanadi.

**Annotatsion:** Uterine erosion in women. Uterine erosion (cervical erosion) is a pathological change in the mucous membrane of the cervix, which can cause problems with sexual health in women. This disease develops mainly as a result of inflammatory processes, hormonal changes or infections. In the early stages of erosion, it may be asymptomatic, but in some cases bloody discharge, discomfort during sexual intercourse and pain in the lower abdomen are observed. To prevent the disease, it is important to undergo regular medical examinations, follow hygiene rules and pay attention to the health of the reproductive system. Among the treatment methods, modern procedures such as pharmacological therapy, cryodestruction, laser or radio wave coagulation are used. This article provides detailed information about the causes, diagnostics, treatment methods and preventive measures of cervical erosion. The prevalence of malignant tumors of the genital organs and their leading place in the system of women’s oncological diseases indicates the urgency of the problems of background and precancerous diseases of the uterine body, cervix. Among oncological diseases of women of reproductive age, the share of cervical tumor processes is

*from 10% to 15.7%. It is known that cervical cancer occupies one of the first places in the system of women's oncological diseases, it develops against an unfavorable background and is considered the last stage of precancerous diseases.*

**Аннотация:** Онкологических заболеваний женщин в репродуктивного возраста процент опухолевых процессов шейки матки колеблется от 10% до 15,7%. Известно, что рак шейки матки занимает одно из первых мест в системе женских онкологических заболеваний.

**Kalit so'zlar:** *O'sma , bachadon bo'yni eroziyasi , polip, vaksibachadon bo'yni, endometriy, miometriy, perimetriy bachadon bo'yni eroziyasi, bachadon epiteliysi, diagnostika, davolash usullari, profilaktika, reproduktiv salomatlik, ayollar kasalliklari, kolposkopiya, krioterapiya, lazer terapiya.*

**Key words:** *Tumor, cervical erosion, polyp, vaccinia, endometrium, myometrium, perimetric cervical erosion, uterine epithelium, diagnostics, treatment methods, prevention, reproductive health, women's diseases, colposcopy, cryotherapy, laser therapy.*

**Ключевое слово:** Опухоль, эрозия шейки матки, полип, шейка матки, эндометрий, миометрий, периметрическая эрозия шейки матки, эпителий матки, диагностика, методы лечения, профилактика, репродуктивное здоровье, женские болезни, кольпоскопия, криотерапия, лазеротерапия.

## KIRISH

Ayollar reproduktiv salomatligi – umumiy sog‘liq uchun muhim omillardan biri bo‘lib, uning buzilishi turli patologiyalarga olib kelishi mumkin. Shunday kasalliklardan biri bachadon bo‘yni eroziyasi bo‘lib, u ayol organizmida ko‘pincha yallig‘lanish jarayonlari, gormonal disbalans yoki infektsiyalar natijasida yuzaga keladi. Bachadon eroziyasi ko‘p hollarda alomatlarsiz kechadi va faqatgina tibbiy ko‘rik davomida aniqlanadi. Biroq ba’zi holatlarda ayollarda qonli ajralmalar, jinsiy aloqada noqulaylik va pastki qorinda og‘riq kuzatilishi mumkin. O‘z vaqtida tashxis qo‘yish va davolash muolajalari amalgalashirilmasa, bu patologiya jiddiy asoratlar, jumladan, onkologik kasalliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Ushbu ishda bachadon eroziyasining kelib chiqish sabablari, klinik belgilari, diagnostikasi hamda davolash usullari haqidagi batafsil ma’lumot beriladi. Shuningdek, kasallikning oldini olish chorralari ham yoritib beriladi.

Ginekolog qabulida deyarli har ikkinchi bemorga bachadon bo‘yni eroziyasi tashxisi qo‘yiladi. Umuman olganda, bu kasallik bola tug‘ish yoshidagi ayollarda eng tez-tez uchraydigan patologiyalardan biridir. Bachdon bo‘yni eroziyasi (endoservikoz, bachadon bo‘yni ektopiyasi) — uning vaginal qismidagi shilliq qavatining yaxlitligi buzilishi, defekti yoki yaralar bilan qoplanishidir. Eroziya bachadon va uning ortiqlariga infektsiya kirishiga yo‘l ochadi va kichik tosning surunkali yallig‘lanish kasalliklari rivojlanishiga sabab bo‘ladi, hatto bepushtlikka olib kelishi mumkin. Bachadon eroziyasining eng xavfli asorati uning yomon sifatli o’simtaga aylanishidir. Shuning uchun bu kasallikni imkon qadar tezroq

aniqlash juda muhim ahamiyatga ega.Kasallik rivojlanishi sabablari .Ushbu kasallikning ko’plab sabablari va rivojlanishiga turtki bo’luvchi omillar mavjud, ammo ular orasida asosiyлари:

Gormonal buzilishlar va immunitetning pasayishi, hayz sikli buzilishlari;

Jinsiy hayotning juda erta boshlanishi, shuningdek, erta homiladorlik va tug’ruq;

Jinsiy hamrohlarning tez-tez o’zgarishi;

Qoniqarsiz shaxsiy gigiena;

Og’ir tug’ruq, abort va boshqa tibbiy manipulyatsiya natijasidagi mexanik jarohatlar; vaginal kontraseptivlarni noto’g’ri ishlatish yoki noto’g’ri chayish, juda qo’pol jinsiy aloqa tufayli;

Siydik-tanosil tizimining yallig’lanish va infektsion kasalliklari, shu jumladan ularni kech va noto’g’ri davolash;

Bakterial va virusli kasalliklar;

Yomon irsiyat.

Bachadon bo’yni eroziyasi bilan bog’liq vaziyat bu kasallikning aniq belgilari yo’qligi va ko’p hollarda o’zini umuman namoyon qilmasligi bilan murakkablashadi. Ammo eroziya rivojlanib borishi bilan bemorlar o’zlarida quyidagi belgilarni aniqlashlari mumkin:

Menstruatsiyalar orasida qonli, ba’zan esa yiringli ajralmalar ajralishi, masalan jinsiy aloqadan keyin sodir bo’lishi mumkin;

Qindan yoqimsiz hidli ajralmalar kelishi;

Ko’rpoq qon kelishli va uzoq muddatli menstruatsiya;

Siydik chiqarish yoki jinsiy aloqa paytida qorinning pastki qismidagi og’riqlar.

Bemorni tekshirish vaqtida ginekolog dastlab bachadon bo’ynini ko’zgular yordamida tekshiradi. Natijada, uning shilliq qavatida ginekologik asbob bilan aloqa qilganda qondaydigan, sog’lom to’qimalar fonidagi yorqin qizil rangli dog’ ko’rinishdagi epiteliy nuqsonlari aniqlanishi mumkin. Eroziya turiga qarab, kasallikning boshqa tashqi belgilari ham mavjud bo’ladi. Ammo har qanday holatda, shuningdek kolposkopiya ham amalgalash oshiriladi (bachadon bo’yni va qinni kattalashtiruv ostida tekshirish) va onkologik kasalliklarni istisno qilish uchun eroziya yuzasidan surtma olinadi va tahlil qilinadi. Bachadon bo’ynini tasvirni 25-32 marta oshiradigan optik asbob bilan tekshirish mutlaqo og’riqsizdir. Ushbu manipulyatsiya shifokorga aniq tashxis qo’yish va to’g’ri davolashni belgilash imkonini beradi. Bundan tashqari, jinsiy yo’l bilan yuqadigan infektsiyalar va viruslar, OIV va gepatitlar, flora sinovlari va boshqa kasalliklar uchun tahlillar o’tkaziladi.Bachadon bo’yni eroziyasining turlari Ginekologiyada kasallikning bir necha turlari ajratiladi: chin, psevdoeroziya va tug’ma. Chin eroziya deyilganda aynan o’sha ginekologik tekshiruvlarda bosilganida qonaydigan yorqin qizil dog’ tushuniladi. Bunday eroziya shunisi bilan xavfliki, zararlangan hududlarda yiring paydo bo’lishi mumkin. Qoida tariqasida, chin eroziya ikki hafta davom etadi, keyin u biriktiruvchi to’qima bilan qoplanadi va psevdoeroziyaga aylanadi. Bachadon bo’ynining psevdoeroziyasi — bu diametri 5 mm ga teng bo’lgan dumaloq qizil hududni nazarda tutadi, uning ustida ham yiring hosil bo’lishi

mumkin, ayniqsa, kasallik uzoq vaqtidan beri davom etayotgan bo’lsa, ko’pchilik hollarda esa aynan shunday bo’ladi. Psevdoeroziya qonida ayol gormonlari yuqori bo’lgan qizlar uchun xosdir va bachadon bo’yni kanali chegarasidan tashqariga chiqib ketishi mumkin. Psevdoeroziyaning xavfi uning yomon sifatli shaklga aylanishi mumkinligi bilan bog’liq.Ba’zan, yosh yoki o’smir qizlarni ko’rikdan o’tkazayotganda, ginekolog bachadon bo’ynida silindrik epiteliya siljishini aniqlaydi, kolposkopiyada esa uni yorqin qizil rangga bo’yalganini ko’rish mumkin. Bu, tug’ma eroziya deb ataladi va uni davolashga hojat yo’q, chunki amalda u hech qachon onkologik kasallikka aylanmaydi.Bachadon bo’yni eroziyasini davolash . Bachadon bo’yni eroziyasini davolash majburiy hisoblanadi, chunki bu kasallikni e’tiborsiz qoldirish yomon yoki yaxshi sifatli o’smalar, shuningdek, kasallikning og’ir shakllari rivojlanishiga olib keladi. O’z vaqtida o’tkazilgan keng qamrovli davolash nafaqat ayollarning sog’lig’iga hech qanday zarar yetkazmaydi, balki umuman olganda ijobjiy ta’sir ko’rsatadi. Albatta, davolanish individual bo’lishi kerak. Kasallikni operatsiyasiz davolash ham samarali bo’lishi mumkin, bunda muayyan usul kasallikning og’irlilik darjasini, kattaligi, shiakstlanish tuzilishi va birgalikda kechayotgan kasalliklar mavjudligiga qarab tanlanadi. Eroziyani davolashning bir bo’lagi sifatida bemorlarga yallig’lanishga qarshi va gormonal, shuningdek antibakterial va antivirus preparatlar, jumladan, mahalliy ta’sir ko’rsatuvchi preparatlar buyuriladi. Yordamchi davolash sifatida odatda immunitetni oshiruvchi va umumiyl mustahkamlovchi vositalar belgilanadi. Agar patologiya erta bosqichda aniqlansa, u jarrohlik usullaridan foydalanmasdan ham butunlay davolanishi mumkin. Jarrohlik usuli bilan davolash. Ba’zi bachadon eroziyasi hollari jarrohlik yordamida davolanishni talab qiladi, ular hozirgi kunda bir necha samarali usulda o’tkazilishi mumkin: Lazerli olib tashlash — eng samarali va eng zamonaviy usuldir, u sog’lom to’qimalarga zarar yetkazmasdan eng yuqori darajadagi aniqlik bilan kesish imkonini beradi. Natijada, operatsiya joyi tezda (4-6 haftagacha) va chandiqlanmasdan tuzalib ketadi. Odatda, lazerli davolash ilgari tug’magan ayollar uchun tavsiya etiladi.

Kriodestruktsiya — bachadon bo’yniga suyultirilgan azot bilan ishlov berish, ya’ni uni muzlatish bilan davolash. Azot bilan aloqada bo’lganda, to’qima hujayrasidagi suv kristallga aylanadi, natijada bachadon bo’ynining zararlangan sohasi hujayraviy tuzilmasi buziladi. Bunday holatda tuzalib ketish muddati 8-10 hafta bo’ladi, lekin ushbu davolash usuli keyingi uzoq muddatli shifokor nazorati ostida bo’lishni nazarda tutadi, chunki nosog’lom hujayralar bilan birga sirt qatlamiga ham zarar yetkazilishi mumkin.

Diatermokoagulyatsiya — bachadon bo’yni eroziyasini yuqori chastotali elektr toki bilan kuydirish. Bu ayollar konsultatsiyasida ushbu patologiyani davolashning eng keng tarqalgan usul hisoblanadi, ammo u juda og’riqli bo’lib, keyinchalik chandiq hosil bo’ladi. Bunday davolanish farzandlari bo’lgan va tug’ishni rejalashtirmayotgan ayollarga tavsiya etiladi.

Kimyoviy koagulyatsiya — bu usulda zararlangan bachadon bo’yni sohasiga kasal hujayralarni yemirishga qaratilgan maxsus preparatlar bilan ishlov beriladi. Bu muolajadan

keyin chandiqlar qolmaydi, shuning uchun davolash usuli tug’magan ayollarga ham mos keladi.

Radioto'lqinli davolash — eroziyalı bachadon bo'yni sohasiga radioto'lqinlarning yuoqri energiyasi bilan ishlov beriladi va to'qimaga hech qanday bosim tushmasligi sababli to'qimalar minimal darajada zararlanadi. Kuyish butunlay mustasnodir, chunki bu usul zararlangan hujayralardagi suv molekulalarining bug'lanishiga asoslanadi. Natijada, chandiq shakllanmaydi va tuzalish vaqtiga 3-5 haftaga teng. Radioto'lqinli davolash og'riqsizdir.

Elektroekstsiziya — bachadon bo'ynining zararlangan hududini kesib tashlash.

Tug'magan ayollarda bachadon bo'yni eroziyasini davolash shart emas degan fikr mavjud. Ha, agar bachadon bo'yni eroziyasi hajmi kichik bo'lsa, bu ba'zan fiziologik norma hisoblanadi va doimiy nazorat qilishdan tashqari, organizmga boshqa aralashuvlar belgilanmaydi. Ammo shuni yodda tutish kerakki, hatto bunday kichik eroziya ham infektsiya uchun kirish eshigi hisoblanadi, demak jinsiy a'zolar kasalliklari paydo bo'lishiga bilvosita yordam berishi mumkin. Bachadon bo'yni eroziyasi – bachadon bo'yni vaginal qismining shilliq qavatidagi yazvali o'zgarishi. Bu eng keng tarqalgan ginekologik kasalliklardan biridir va statistik ma'lumotlarga ko'ra, har oltinchi ayoldan birida uchraydi.

Bachadon bo'yni eroziyasingning tasnifi. Bachadon bo'yni eroziyasi bo'lishi mumkin: U silindrsimon epiteliyning bachadon bo'yni kanalidan tashqariga chiqishi tufayli hosil bo'ladi. Patologik jarayon prenatal davrda sodir bo'ladi. Tug'ma eroziya har doim kichik, silliq, bachadon bo'yni tashqi tomog'ini o'rab oladi, qizil rangga ega. Ularni o'rganayotganda, shifokor bachadon bo'yni kanalidan patologik sekretsiya chiqarilmasligini, yallig'lanish jarayonining belgilari bor yoki yo'qligini aniqlaydi. Ko'pincha tug'ma eroziya o'z-o'zidan yo'qoladi. Ammo ular balog'at yoshiga qadar saqlanib qolsa, infeksiya xavfi va keyinchalik bachadon bo'yni o'zgarishi ortadi; Bu yallig'lanish, yaralarning shakllanishi bilan namoyon bo'ladi. Odatda boy qizil rangga ega. Palpatsiya paytida qon keta boshlaydi. Paydo bo'lganidan ikki hafta o'tgach, haqiqiy eroziya psevdo-eroziyaga aylana boshlaydi, ya'ni u asta-sekin davolanadi; psevdo-eroziya. Asta-sekin tuzalib, shikastlangan epiteliy silindrsimon bilan almashtiriladi, bachadon bo'yni kanalidan yallig'langan yuzaga o'sadi. Aynan shu bosqichda ginekologlar ko'pincha kasallikni aniqlaydilar. Silindrsimon epiteliya nafaqat eroziya yuzasida, balki chuqurlikka qarab ham tarqalishi mumkin. Eroziya bezlari ma'lum bir sekretsiyani chiqaradi va to'playdi. U ohirgacha chiqib ketmaydi, shuning uchun har kuni kistalar paydo bo'lish xavfi ortadi (ba'zi hollarda ularning o'lchamlari shunchalik kattaki, ular poliplarga o'xshaydi). Kistalar tufayli bachadon bo'yni qalinlashadi, uning shakli o'zgaradi.

Ko'pgina hollarda eroziya hech qanday tarzda o'zini namoyon qilmaydi. Ayol yoqimsiz his-tuyg'ularni boshdan kechirmaydi, odatdagи tur mush tarzini olib boradi va faqat ginekolog tomonidan muntazam tekshiruv paytida u bachadon bo'yni yallig'lanish kasalligini davolashga muhtojligini bilib oladi. Ba'zida kasallik o'zini quyidagilar orqali oshkor qiladi:

- vaginal yo'llardan shilliq yoki yiringli ko'p miqdorda suyuqlik chiqishi;
- jinsiy aloqa paytida og'riq;
- qon aralash suyuqlik chiqib turishi (odatda haqiqiy eroziyaga xosdir).

Bachadon bo'yni eroziyasi (servikal eroziya) ayollarda tez-tez uchraydigan kasallik bo'lib, asosan bachadon bo'yni epiteliysi zararlanishi yoki shikastlanishi bilan tavsiflanadi. Ushbu kasallik ayollarning hayot sifatiga va reproduktiv salomatligiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Tadqiqotlarga ko'ra, bachadon bo'yni eroziyasi bilankasallangan ayollarda boshqa jiddiy patologiyalar, jumladan, bachadon bo'yni saratoni rivojlanishi xavfi ortadi. Bachadon bo'yni eroziyasining asosiy sabablari orasida gormonal o'zgarishlar, yallig'lanish jarayonlari, shikastlanishlar, infektsiyalar, spirtli ichimliklarni o'z ichiga olgan gigiena vositalar foydalanish, shuningdek, agressiv mahalliy kontratseptiv vositalardan foydalanish kiradi. Haqiqiy eroziya ko'pincha surunkali endoservitsit fonida paydo bo'ladi.[1]. Umuman olganda, bu kasallik bola tug'ish yoshidagi ayollarda eng teztek uchraydigan patologiyalardan biri hisoblanadi. Bachadon bo'yni eroziyasi (endoservikoz, bachadon bo'yni ektopiyasi) — uning vaginal qismidagi shilliq qavatining yaxlitligi buzilishi, defekti yoki yaralar bilan qoplanishidir. Eroziya bachadon va uning ortiqlariga infektsiya kirishiga yo'l ochadi va kichik tosning surunkali yallig'lanishi kasalliklarini rivojlanishiga sabab bo'ladi, hatto bepushtlikka olib kelishi ham mumkin. Bachadon eroziyasining eng xavfli asorati , shuki uning yomon sifatli o'simtaga aylanishidir. Shuning uchun bu kasallikni imkon qadar tezroq aniqlash juda muhim ahamiyatga egadir.

Bachadon bo'yni eroziyasi ikki asosiy turga bo'linadi; qayta tiklanadigan (yuza) eroziya: epiteliyning sirt qismini qamrab oladi va oddiy shifobaxsh vositalar yordamida davolanishi mumkin. surunkali eroziya: bu holatda epiteliyning chuqur qatlamlari zararlanadi, shuningdek, bachadon bo'yni saratoni xavfini oshiradi. Bulardan tashqari chin, psevdoeroziya va tug'ma. Chin eroziya deyilganda aynan o'sha ginekologik tekshiruvlarda bosilganida qonaydigan yorqin qizil dog' tushuniladi. Bunday eroziya shunisi bilan xavfli, zararlangan hududlarda yiring paydo bo'lishi mumkin. Qoida tariqasida, chin eroziya ikki hafta davom etadi, keyin u biriktiruvchi to'qima bilan qoplanadi va psevdoeroziyaga aylanadi. Gormonal buzilishlarni kuzatish va tuzatish ko'rsatiladi. Agar kerak bo'lsa, ayolga endokrinolog bilan maslahatlashish va tegishli gormonal terapiyani o'tkazish tavsiya etiladi. Jinsiy organlarni to'g'ri parvarish qilish, ayniqsa vaginal infektsiyalarning kuchayishi davrida kuchli yallig'lanishni oldini oladi. Agressiv gigiena vositalaridan va ichki mikroflorani buzadigan va qo'ziqorin va boshqa tegishli kasalliklar xavfini oshiradigan dushdan ortiqcha foydalanishdan saqlanish tavsiya etiladi.[2] Shaxsiy gigiena qoidalariiga roya qilish va tasodifiy jinsiy aloqalardan qochish bilan doimiy jinsiy hamrohning mavjudligiga e'tibor berish kerak, ammo bu ayol sog'lig'ini saqlashning umumiy normalaridir. Bachadon bo'yni eroziyasini aniqlash va davolashchun jiddiy oqibatlarni kutmasdan, uni o'z vaqtida aniqlashga faqatgina har olti oyda bir marotaba ginekolog huzurida profilaktik tekshiruvlardan o'tish orqali erishish mumkin. Bu kasallikni oldini olishning asosiy chorasi. Kasallik aniqlanganda undan qo'rmaslik kerak, ayniqsa bugungi

kunda shafqatli juda ko’p usullar mavjudligini hisobga olganda. Buning o’rniga, o’z vaqtida davolanmaslik oqibatlaridan ehtirot bo’lish kerak, chunki bu saraton kasalligining boshlanishiga qadar turli xil asoratlarga olib keladi. Bugungi kunda eroziya samarali davolanmoqda, shu sababli uni uy sharoitida mustaqil davolashga, xalq tabobati vositlarini qo’llashga hojat yo’q, ular bir ko’rinishda samara berishidek taassurot uyg’otsa ham, mavjud vaziyatni og’irlashtirib yuborishi mumkin.[4] Kimyoviy koagulyatsiyadan foydalanish mumkin. Turli xil kimyoviy moddalar patologik hujayralardagi oqsillarning katlanishiga olib keladi, bu ularning yo’q qilinishiga va keyinchalik sog’lom epiteliya bilan almashtirilishiga olib keladi. Usul kichik eroziyalar uchun afzalroq va diatermokoagulyatsiya bilan solishtirganda kamroq invazivdir. Lazer terapiysi eng samarali hisoblanadi. Bu patologik o’zgargan hujayralarni bug’lantirish (bug’lash) uchun mo’ljallangan yuqori intensiv lazer nuridan foydalanishga asoslangan. Bu usul atrofdagi sog’lom hujayralarga minimal zarar etkazgan holda yuqori aniqlikdagi to’qimalarni olib tashlash imkonini beradi.[2] Bachadon bo’yni eroziyasini davolash patologik epiteliyni yo’q qilishga va sog’lom to’qimalarning yangilanishini rag’batlantirishga qaratilgan. Qayta tiklovchi va yallig’lanishga qarshi komponentlarni o’z ichiga olgan maxsus malhamlar, shamlar va tamponlardan foydalanish eroziyaning tabiiy davolanishiga yordam beradi. Mahalliy davolanishni minimal invaziv usullar bilan birlashtirish mumkin. Shuningdek, ayolga muntazam ravishda ginekologik tekshiruvlar o’tkazish va qo’llaniladigan usullarning samaradorligini baholash uchun profilaktik kolposkopiya qilish tavsiya etiladi. Eroziya takrorlanishi mumkin. Buni faqat qattiq tibbiy nazorat orqali kuzatish mumkin. Oldini olish reproduktiv tizimning sog’lig’ini saqlashga va eroziyaning paydo bo’lishiga yordam beruvchi omillarning ta’sirini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuuni o’z ichiga oladi. Bu kasallikni oldini olish uchun o’z navbatida sog’lom turmush tarzini saqlash ko’rsatiladi. Bu muvozanatli ovqatlanish, yomon odatlardan voz kechish (chekish, spirtli ichimliklarni iste’mol qilish) va muntazam jismoniy faoliyatni o’z ichiga oladi. Jinsiy yo'l bilan yuqadigan infektsiyalardan himoya qilish uchun kontratseptsiyaning to’siq usullaridan (prezervativ) foydalanish tavsiya etiladi. Onkogen shtammlar bilan infeksiyani oldini olish uchun HPV (papillomavirus) ga qarshi emlashni joriy qilish mumkin, bu ayollarda eroziyaning malignitesi sabablaridan biridir.[5]

Muntazam ginekologik tekshiruvlar zarur. Xavf ostida bo’lgan ayollar patologik o’zgarishlarni erta aniqlash maqsadida servikal smear va kolposkopiyaning sitologik tekshiruvidan o’tadilar. Yallig’lanish kasalliklarini o’z vaqtida davolash ham endoserviksdagि eroziv o’zgarishlarni oldini oladi. Servitsit, vaginit va boshqa yuqumli va yallig’lanish jarayonlarini etarli darajada davolash ektopiyaning oldini olishning asosiy usullaridan biridir.

Tadqiqot: Agar siz bachadon bo’yni eroziyasi bo‘yicha ilmiy tadqiqot izlayotgan bo‘lsangiz, quyidagi yo‘nalishlarda izlanish olib borish mumkin:

1. Bachadon bo’yni eroziyasi va uning xavf omillari

Tadqiqot maqsadi: Bachadon bo‘yni eroziyasi rivojlanishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash. Men Andijon shahar Perinatol markazda 200 nafar ayol ishtirokida klinik va epidemiologik tadqiqot o’tkazdim. Ularda jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar, gormonal muvozanat va boshqa omillar tahlil qilindi

Kutilayotgan natijalar: Bachadon bo‘yni eroziyasi xavfini oshiruvchi asosiy omillar aniqlanadi, bu esa kasallik profilaktikasi uchun muhim bo‘ladi.

## 2. Psevdoeroziyaning bachadon bo‘yni saratoni bilan bog‘liqligi

Tadqiqot maqsadi: Psevdoeroziyaning uzoq muddatli ta’siri va uning bachadon bo‘yni saratoni rivojlanishiga ta’sirini o‘rganish. So‘nggi 10 yil davomida psevdoeroziya tashxisi qo‘yilgan bemorlarning tibbiy ma’lumotlarini tahlil qilish. PAP-test va biopsiya natijalari orqali hujayralardagi o‘zgarishlarni o‘rganish.

Kutilayotgan natijalar: Psevdoeroziyaning xavfsiz yoki xavfli ekanligi aniqlanadi va davolash strategiyalari takomillashtiriladi.

3. Tadqiqot maqsadi: Krioablatsiya, lazer terapiya va radioto‘lqin terapiyasining bachadon bo‘yni eroziyasi bilan bog‘liq natijalarga ta’sirini baholash.

Usul: 200 nafar bemor uch guruhga bo‘linib, ularga har xil davolash usullari qo‘llanadi. 6 oy va 1 yil o‘tgach, ularning holati qayta baholanadi.

Kutilayotgan natijalar: Qaysi usul eng samarali ekani aniqlanadi, shuningdek, nojo‘ya ta’sirlarning chastotasi va tiklanish davri baholanadi.

4. O‘zbekistonda bachadon bo‘yni eroziyasi bilan kasallangan ayollarning statistik tahlili. Tadqiqot maqsadi: So‘nggi 5 yil davomida bachadon bo‘yni eroziyasi bo‘yicha O‘zbekistonda qayd etilgan holatlar soni va ularning yosh bo‘yicha taqsimotini o‘rgandim. Va bu usul bilan tanishdim. Respublika bo‘ylab 10 ta asosiy tibbiyot markazidan yig‘ilgan ma’lumotlar tahlil qilinadi.

Tadqiqotim natijasida kutilayotgan natijalar: Kasallikning yoshga bog‘liq xususiyatlari, uning urbanizatsiya yoki turmush sharoitiga ta’siri haqida yangi ma’lumot olinadi.

## XULOSA

Bachadon bo‘yni eroziyasi ayollar reproduktiv salomatligiga salbiy ta’sir qiluvchi jiddiy kasallikkordan biridir. Kasallikni erta aniqlash va davolash yordamida xavflarni kamaytirish mumkin. Profilaktika choralariga rioya qilish va davolash usullaridan to‘g‘ri foydalanish kasallikdan himoyalanishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada keltirilgan diagnostika va davolash usullari bemorlar va tibbiyot mutaxassislari uchun asosiy ma’lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bachadon bo‘yni eroziyasi turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin va o‘z vaqtida aniqlanmasa, jiddiy asoratlarga, jumladan, saraton xavfining oshishiga olib kelishi mumkin. Kasallikni erta bosqichda aniqlash uchun muntazam ravishda ginekologik tekshiruvlardan o‘tish muhim. Davolash usullari orasida kimyoviy koagulyatsiya, gormonal terapiya va zarur holatlarda boshqa tibbiy aralashuvlar mavjud. Uy sharoitida mustaqil davolash yoki xalq tabobati vositalaridan foydalanish kasallikni yanada og‘irlashtirishi mumkin. Shu sababli, har bir ayol reproduktiv salomatligini saqlash uchun

shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilishi va mutaxassis tavsiyalariga amal qilishi lozim. Bachadon bo‘yni eroziysi: Sabablari, Belgilari, Diagnostikasi va Davolash Usullari. Bachadon bo‘yni eroziysi keng tarqalgan ginekologik muammo bo‘lib, aksariyat hollarda simptomsiz kechadi. Shuning uchun uni erta bosqichda aniqlash juda muhim. Davolash usullari zamonaviy va samarali bo‘lib, ular kasallikning sababiga qarab individual tanlanadi. Uy sharoitida mustaqil davolash kasallikni og‘irlashtirishi mumkin, shu sababli faqat mutaxassis tavsiyalariga amal qilish kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Akilova, M. M., & Karimova, N. (2022). Ayollarda reproduktiv salomatlik va uning muammolari. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti.
2. Ismoilova, G. X. (2020). Ginekologiyada zamonaviy diagnostika va davolash usullari. Toshkent: Tibbiyot fanlari markazi.
3. Sattorov, O. T., & Rashidov, B. T. (2019). "Bachadon bo‘yni kasalliklarini diagnostika qilishning yangi yondashuvlari." O‘zbekiston tibbiyoti jurnali, 4(5), 35–42.
4. Ferlay, J., et al. (2020). Global cancer statistics 2020: GLOBOCAN estimates of incidence and mortality worldwide for 36 cancers in 185 countries. CA: A Cancer Journal for Clinicians, 70(6), 394–424.
5. Saldanha, G., & Nayar, R. (2017). "The Bethesda system for reporting cervical cytology: Definitions, criteria, and explanatory notes.